IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 23 Issue 01 AVGUST 2026

EKOLOGIK SIYOSATNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA GLOBAL TAJRIBA TAHLILI

Poyonov Jamshid
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
magistratura talabasi
E-mail: poyonovjamshid00@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22007605
Tel: +998 88 313 51 83

Annotatsiya. Ushbu tezisda ekologik siyosatning xalqaro-huquqiy asoslari va uning tarixiy shakllanish bosqichlari tahlil qilingan. Xalqaro ekologiya huquqining to‘rt bosqichli evolyutsiyasi - an’anaviy era, Dostokgolm davri, Stokgolm davri va Rio-de-Janeyro davri - ko‘rib chiqilgan, shuningdek Stokgolm konferensiyasi, Vena konvensiyasi, Kioto protokoli va Parij bitimi kabi asosiy xalqaro hujjatlarning ekologik boshqaruv tizimidagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqotda Yevropa Ittifoqi, AQSH, Xitoy va Skandinaviya mamlakatlarining ekologik siyosat borasidagi tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlangan. Tahlil natijalari ekologik siyosatning samaradorligi qonunchilik bazasining mustahkamligi, fuqarolik jamiyatining faolligi va yashil iqtisodiyotga o‘tishni rag‘batlantiruvchi moliyaviy mexanizmlarning mavjudligiga bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.
Kalit so‘zlar: xalqaro ekologiya huquqi, ekologik siyosat, barqaror rivojlanish, Stokgolm deklaratsiyasi, Kioto protokoli, Parij bitimi, yashil iqtisodiyot, ekologik xavfsizlik.

KIRISH

Ekologiya muammosi davrimizning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qoldi. Uning xavfi hatto yadro xavf-xataridan ham dahshatliroq bo‘lib, butun yer shari xalqlarini tashvishga solmoqda. I. A. Karimov ta’kidlaganidek, asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi va buni sezmaslik o‘z-o‘zini o‘limga mahkum etish bilan barobardir[1]. Dunyo mamlakatlari hamjihatlik bilan mavjud ekologik muammolarga jiddiy e’tibor qaratishlari zarur, shu bois atrof-muhitni xalqaro ekologik muhofaza qilish xalqaro ekologiya huquqi bilan tartibga solinadi. Ushbu tezisda xalqaro ekologiya huquqining shakllanish bosqichlari, asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlar va yetakchi mamlakatlarning ekologik siyosat borasidagi global tajribasi tahlil qilinadi.

1. XALQARO EKOLOGIYA HUQUQINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA XUSUSIYATLARI

Ko‘pgina ilmiy manbalarda xalqaro ekologiya huquqining shakllanishi to‘rtta asosiy bosqichdan iborat ekanligi ta’kidlanadi. Birinchi bosqich (1839-1948) ba’zi manbalarda "an ‘anaviy era" deb ataladi va qirg‘oqdan baliq ovlash bo‘yicha ikki tomonlama kelishuvlardan kelib chiqadi - bu ekologiya huquqining dastlabki shakllanish davri hisoblanadi. Ikkinchi bosqich (1948-1972) “Dostokgolm davri” deb nomlanib, xalqaro ekologik hamkorlikning institutsional asoslarini mustahkamladi; bu davrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan idoralari faoliyati takomillashib bordi. Uchinchi bosqich (1972-1992) “Stokgolm davri” deb ataladi: Stokgolmdagi inson muhiti bo‘yicha BMT konferensiyasi va BMTning atrof-muhit bo‘yicha dasturi tavsiyasiga ko‘ra institut BMT Bosh Assambleyasining yordamchi organi sifatida xalqaro tashkilotlar va davlatlarning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi sa’y-harakatlarini muvofiqlashtiradi. To‘rtinchi bosqich (1992-2017) esa “Rio-de-Janeyro davri” deb

nomlanib, Rio-de-Janeyroda (Braziliya) bo‘lib o‘tgan BMTning atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasida bir qator ekologik masalalar qamrab olingan[2].

Yuqoridagi bosqichlar mobaynida xalqaro ekologiya huquqi asosiy shakllanish davrini bosib o‘tdi va bugungi kunga kelib mustahkam huquqiy asos sifatida qaralmoqda. Mutaxassislarning ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda sayyoramizda har xil yoqilg‘i yoqish sababli har yili 10,1 mlrd tonna kislorod sarf bo‘lmoqda, qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarning 70 foizi, chuchuk suvlarning 20 foizi o‘zlashtirilib foydalanilmoqda, o‘rmonlar egallagan maydonlar yildan-yilga kamayib bormoqda, cho‘l zonalarining maydoni oshib bormoqda, havo harorati esa muntazam ko‘tarilmoqda[3].

Xalqaro ekologiya huquqining subyekti bo‘lib millat va xalqlar, o‘z mustaqilligiga ega bo‘lmagan barcha davlatlar, xalqaro tashkilot va birlashmalar, xalqaro ekologik munosabatlarga qatnashuvchi barcha yuridik hamda jismoniy shaxslar tan olinadi. Shuningdek, xalqaro ekologiya huquqining bir qator o‘ziga xos xususiyatlari mavjud: birinchidan, u xalqaro ekologik huquqiy munosabatlarni mustahkamlaydi va tartibga soladi; ikkinchidan, mavjud xalqaro ekologik holat va muammolar xalqaro prinsiplar asosida ko‘rib chiqilib, hal etilishi ta’minlanadi; uchinchidan, qabul qilingan barcha xalqaro ekologik huquqiy normativ hujjatlar bitta davlat emas, balki bir nechta davlatlar va xalqlar manfaatidan kelib chiqadi; to‘rtinchidan, xalqaro miqyosda tuzilgan barcha ekologik huquqiy normalar xalqaro prinsiplarga asosan amalga oshirilishi davlatlar tomonidan ta’minlanadi[2].

1963-yilda Moskvada qabul qilingan hujjat kosmosning radioaktiv zaharlanishiga to‘siq bo‘lib, uni yadroviy maydonga aylantirishning oldini olishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, Kosmos to‘g‘risidagi 1967-yildagi shartnoma hamda Oy va boshqa samoviy jismlardagi davlatlarning faoliyati to‘g‘risidagi 1979-yildagi bitim muhim muhofaza qoidalarini ifodalaydi[4]. Xalqaro ekologik huquq sohasidagi normativ-huquqiy bazaning hajmi yildan-yilga kengayib bormoqda: bugungi kunda xalqaro miqyosda 1500 dan ziyod ko‘p tomonlama, shuningdek 3000 dan ortiq ikki tomonlama shartnoma va bitimlar amal qilmoqda.

2. XALQARO EKOLOGIK HUQUQNING TARIXIY RIVOJLANISHI: STOKGOLMDAN PARIJGACHA

1972-yil 5-16-iyun kunlari Shvetsiyaning Stokgolm shahrida BMT tashabbusi bilan Inson muhiti bo‘yicha xalqaro konferensiya (UNCHE) bo‘lib o‘tdi. Ushbu anjumanda dunyo bo ‘ylab 110 dan ortiq davlatning rasmiy vakillari ishtirok etdi - atrof-muhit masalalariga bag‘ishlangan bunday keng ko‘lamli hukumatlararo uchrashuv tarixda birinchi marta o‘tkazilib, “Faqat bitta Yer” shiori ostida kechdi. Mazkur konferensiya bir qator muhim natijalari bilan xalqaro ekologik huquq tarixiga muhrlanib qoldi: eng avvalo, 26 tamoyildan tarkib topgan Stokgolm Deklaratsiyasi qabul qilindi. Bu hujjat insoniyat tomonidan ekologik muammolarni umumjahon miqyosida rasman tan olish va muhokama qilishning dastlabki belgisi bo‘ldi hamda “atrof-muhit” va “rivojlanish” tushunchalarining bir-biridan ajralmas ekanligini birinchi marta rasman e‘tirof etdi. Konferensiya doirasida 109 ta aniq tavsiyani o‘z ichiga olgan harakatlar rejasi ham ishlab chiqildi[5], u global ekologik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish, atrof-muhitni samarali boshqarish mexanizmlarini shakllantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kabi uchta asosiy yo‘nalishni qamrab oladi.

Xalqaro amaliyotda iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashni huquqiy jihatdan ta’minlashda bir qator muhim hujjatlar alohida o‘rin tutadi. Shu qatorda 1985-yilda qabul qilingan Vena konvensiyasi va undan ikki yil keyin, ya’ni 1987-yilda imzolangan Monreal protokoli o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi[6]. Ushbu ikki hujjat ozon qatlamiga zarar yetkazuvchi kimyoviy moddalar chiqindilarini cheklash borasida jahon miqyosida erishilgan eng samarali kelishuv sifatida tan olingan bo‘lib, ko‘p yillik amaliyot shuni ko‘rsatdiki, ushbu bitimlar tufayli ozon qatlamining tiklanish jarayoni sezilarli darajada tezlashdi.

1992-yilda Rio-de-Janeyro sammiti doirasida qabul qilingan BMTning iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi Ramka konvensiyasi (UNFCCC) issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish yo‘lidagi xalqaro birgalikdagi harakatlarning rasmiy boshlanish nuqtasi bo‘lib xizmat qildi[7]. Shuningdek, 1997-yilda Yaponiyaning Kioto shahrida imzolangan Kioto protokoli xalqaro ekologik huquq tarixida o‘ziga xos yangi sahifa ochdi, chunki u birinchi marta rivojlangan sanoat davlatlariga issiqxona gazlari chiqindilarini aniq belgilangan miqdorda kamaytirishni qonuniy majburiyat sifatida yukladi.

BMT tashabbusi bilan 2015-yil 12-dekabrda Parij shahrida qabul qilingan bitim iqlim sohasidagi xalqaro harakatlarning yangi bosqichini boshlab berdi va davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik uchun huquqiy, siyosiy hamda moliyaviy poydevor yaratdi. Parij bitimining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u o‘zidan oldin qabul qilingan xalqaro ekologik hujjatlardan tubdan farq qiladi: ushbu bitimda birinchi marta rivojlangan ham, rivojlanayotgan ham barcha ishtirokchi davlatlar iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda teng mas’uliyatni bo‘lib oldi. Hujjat sayyoramizda global harorat o‘sishini 1,5-2 darajadan oshirmaslik, issiqxona gazlari chiqindilarini bosqichma-bosqich qisqartirish, moslashuv imkoniyatlarini kengaytirish va iqlim barqarorligini saqlashga qaratilgan. Ayniqsa, milliy belgilangan hissalar (NDC) mexanizmi orqali har bir davlatning o‘z ichki iqtisodiy va siyosiy sharoitini inobatga olgan holda majburiyatlarni mustaqil belgilashi, ushbu majburiyatlar ijrosi ustidan esa xalqaro darajada nazorat olib borilishi bitimni haqiqiy ma ‘noda universal va amaliy hujjatga aylantirdi. 190 dan ortiq davlat tomonidan qabul qilingan Parij bitimi xalqaro iqlim siyosatining huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

3. YETAKCHI MAMLAKATLAR VA MINTAQALARNING EKOLOGIK SIYOSATIDAGI GLOBAL TAJRIBA

Ekologik siyosatda jahon yetakchilaridan biri Yevropa Ittifoqi global ekologik me’yorlarni shakllantirishda ilg‘or o‘rinni egallaydi. Ushbu birlik tomonidan ishlab chiqilgan “Yevropa yashil kursi” strategiyasi 2050-yilga borib butun qit’ani iqlim neytral mintaqaga aylantirish kabi ulkan maqsadni ko ‘zda tutadi[8]. Yevropa Ittifoqi huquqiy tizimida “kim ifloslantirsa, o‘sha javob beradi” degan asosiy tamoyil belgilangan bo‘lib, bu yondashuv nafaqat sanoat chiqindilarini cheklash bilan chegaralanmay, balki yangi texnologiyalarni joriy etishni ham qo‘llab-quvvatlaydi.

“Jahon fabrikasi” sifatida tanilgan Xitoy ekologik siyosatini markazlashgan davlat boshqaruvi asosida amalga oshiradi. Mamlakat asosiy qonuniga kiritilgan “Ekologik sivilizatsiya” konsepsiyasi iqtisodiy taraqqiyot bilan tabiatni muhofaza qilish o‘rtasida muvozanat saqlashni talab etadi. Xitoy bugungi kunda quyosh panellari va shamol turbinalari ishlab chiqarishda dunyo bo‘ylab birinchi o‘rinda turadi, 2060-yilga borib esa uglerod chiqindilarini nolga tenglashtirish maqsadini belgilab qo‘ygan.

Shvetsiya, Norvegiya va Daniyadan iborat Skandinaviya mintaqasi yopiq aylana iqtisodiyoti modeli va yuqori ekologik soliq tizimi yordamida barqaror rivojlanishga erishgan. Xususan, Shvetsiyada maishiy chiqindilarni qayta ishlash shunchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilganki, o‘z iste’moli uchun yetarli chiqindi qolmay, qo‘shni davlatlardan qo‘shimcha xomashyo import qilishga to‘g‘ri keladi. Norvegiya esa elektr transport vositalarini ommalashtirish bo‘yicha hozircha hech bir davlat yeta olmagan natijalarni qo‘lga kiritgan.

XULOSA

Ekologik siyosat mazmunini tahlil etish davlatning tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit sifatini ta’minlashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar majmuini ifodalashini ko‘rsatdi. Ekologik siyosatning asosiy tamoyillari sifatida ehtiyotkorlik, “ifloslantiruvchi to‘laydi”, ishtirok etish va davlatlararo tenglik tamoyillari alohida

o‘rin tutadi, uning boshqaruv, tartibga solish, rag‘batlantirish va nazorat qilish kabi funksiyalari milliy taraqqiyot dasturlarida samarali mexanizmlarni belgilaydi. Xalqaro-huquqiy asoslarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, BMT doirasida qabul qilingan ko‘plab konvensiyalar - xususan Parij bitimi, biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiya hamda barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM 2030) - bugungi kunda global ekologik boshqaruvning huquqiy poydevorini tashkil qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni tasdiqlaydiki, ekologik siyosatning samaradorligi ko‘p jihatdan qonunchilik bazasining mustahkamligi, fuqarolik jamiyatining faolligi va yashil iqtisodiyotga o‘tishni rag‘batlantiruvchi moliyaviy mexanizmlarning mavjudligiga bevosita bog‘liqdir. O‘rganilgan nazariy va xalqaro tajriba asoslari, keyingi tadqiqotlarda O‘zbekiston misolida ekologik siyosatning amaliy jihatlarini tahlil qilish uchun mustahkam metodologik zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, I. A. (1999). O‘zbekiston buyuk kelajak sari. O‘zbekiston, 505-b.
2. Narzullayev, O. X. (2026). Xalqaro ekologiya huquqi: O‘quv qo‘llanma (2-nashir). Dimal, 14-15-b.
3. Karabayeva, Z. T., & Shoxakimova, A. A. (2023). Ekologiyaning huquqiy asoslari: O‘quv qo‘llanma. Lesson Press, 3-b.
4. To‘xtashev, H. I. (2022). Ekologiya huquqi: o‘quv qo‘llanma. TDYU nashriyoti, Lesson Press, 184-b.
5. United Nations. (1972). Report of the United Nations Conference on the Human Environment. United Nations. https://digitallibrary.un.org/record/523249
6. Birnie, P., Boyle, A., & Redgwell, C. (2021). International law and the environment (4th ed.). Oxford University Press.
7. United Nations. (1992). United Nations Framework Convention on Climate Change. https://unfccc.int/resource/docs/convkp/conveng.pdf
8. Jordan, A., & Moore, B. (2020). Durable environmental policies for a low carbon future. Cambridge University Press.